


PEDAGOGIK TA`LIM YO`NALISHDA CHET TILLARINI O`QITISHNING AHAMIYATI



Mamayoqubova Nilufar Olimovna

*Denov tadbirkorlik va pedagogika institute
Pedagogika ta'lism yo'naliishi 2-bosqich talabasi*

*Email: mamayoqubovanilufar@gmail.com
Tel: +998880245004*

Shomurotov Ulugbek Melikboboyevich

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
o'qituvchi u.shomurotov@dtpi.uz*

+998915107420

Annatatsiya: Chet tillarini o'rganish va o'rgatish barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar qatori Vatanimiz-O'zbekistonda ham zamon talabiga aylandi. Chet tillarini o'rganish uchun bugun yoshlarga, qolaversa, barcha yurtdoshlarimizga yaratib berilayotgan shart-sharoitlar o'zining ijobiy natijasini isbotlab bormoqda, desak adashmagan bo'lamiz. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar qatorida bugun chet tillariga, ayniqsa, ingliz tiliga e'tibor kuchaymoqda. Nafaqat chet tillari misolida, balki ilm dunyosining barcha sohalarida jiddiy o'zgarishlar, har jahada yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Albatta, bunday ulkan bunyodkorlik ishlarining boshida yurtboshimiz muhtaram Shavkat Mirziyoyevning ko'rsatgan jonbozliklari, yoshlarga bo'lgan e'tibor, kelajakka ishonch kabi tuyg'ular o'z aksini topadi.

Kalit so`zlar: metodika, malaka, mutaxassis, Chet til metodikasi, innovatsiya, talab va taklif, samaradorlik, munozara va muhokama.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 9-sessiyasi (1997-yil, 29-avgustda) qabul qilingan hamda bugungi kunda g'oyalari amaliyatga keng ko'lamma, muvaffaqiyatli tatbiq etilayotgan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 1875-sonli PQ qarori mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mohiyati to'laqonli ochib berilgan. Mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar tufayli navqiron avlodning zamonaviy bilim olishi, komil inson bo'lib voyaga yetishi uchun beqiyos imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilgan.

Asosiy qism. Bugungi kunda chet tilini o'rganish zamonaviy talim-tarbiya tizimi va milliy meros asosida har bir darsni o'ziga xos, takrorlanmas darajada tashkil etish ma'naviy-ma'rifiy jihatdan yondoshish zarurligini talab qiladi. Talim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash zarurati "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni ro'yobga chiqarish shartlaridan biridir. Respublikamizning barcha ilm maskanlari: maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim mакtablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va oliy ta'lim dargohlarida tahsil olayotgan yoshlarni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta'minlash, yangi bilimlar tizimi bilan qurollantirishni uzlusiz tashkil etish davr talabidir. O'quvchi o'z fikrini erkin bayon etishi, mavzuni guruh yoki jamoa ichida yoritib berishida esa ilg'or texnologiyalarning o'rni katta ahamiyatga egadir. Binobarin, chet tili va uning metodikasini o'qitishning maqsad va vazifalari jamiyatimiz va davlat manfaatlari talablariga, unib-o'sayotgan yosh avlod talablariga mos kelishi va javob berishi lozim. Innovatsion texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillardan hisoblanadi. Masalan, "Aqliy hujum" va "Pinboard" kabi metodlar orqali talaba-yoshlar saviyasi va chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortib borayotganini ko'rishimiz mumkin. "Aqliy hujum" metodi o'rganuvchilarning bilim saviyalarini sinab ko'rishga mo'ljallangan metod hisoblanadi. Bu usul bilan talabalarning diqqatini mashg'ulot mavzusiga qaratish uchun o'qituvchi tomonidan savol-javob tashkil qilinadi. Bu jarayonda savollar turlicha, mantiqan, qiziqarli yoki ilmiy-siyosiy jihatdan mavzuga aloqador bo'lishi lozim. Ushbu savol-javob talaba - yoshlar faolligidan kelib chiqqan holda 5-10 daqiqani tashkil etishi mumkin. "Aqliy hujum" metodidan foydalanib, mashg'ulotlar tashkil qilinganda o'rganuvchilar turli savollarga javob izlaydilar, muammoli vaziyatlardan chiqib ketish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soladilar, vaziyatdan qay tarzda chiqib ketish yo'llarini qidiradilar. Bu esa ularning darsga va yangi mavzuga qiziqishning ortishiga, faollashuviga olib keladi. Bu metoddan foydalanilgan paytda har bir talabaning bergen javobi inobatga olinadi. Asosiysi, har bir talabandan o'z javobini asoslashi va himoya qilishi so'raladi.

Dars samaradorligini oshirish maqsadida keying tavsiya etiladigan metod bu "Pinboard" deb nomlanuvchi usuldir. "Pinboard" so'zi inglizchadan olingan bo'lib, "pin-mustahkamlash", "board-doska" ma'nosini anglatadi. Bu o'qitish metodining asosiy mohiyati va maqsadi shundan iboratki, unda talabalar ishtirokidagi munozara va o'quv suhbati amaliy usul bilan bevosita bog'lanib ketadi. Har bir o'quvchida muloqot yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. O'z fikrini ravon va erkin bayon eta olish qobiliyati paydo bo'ladi, mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarri rivojlanadi. Doskaga chiqqan paytda yoki ko'pchilik omma oldida o'z shaxsiy va dunyoviy fikrlarini ko'rsata olish qobiliyati shakllanadi. Tengdoshini eshitma olish, fikrini inobatga olish, o'z fikrida qolish, boshqaning noto'g'ri javobini isbotlab berish kabi ko'nikmalar paydo bo'ladi. Ta'lim sifatini oshirish, xorijiy tillarni o'qitishni

rivojlantirish, o‘quvchi yoshlarning xorijiy tillarni o‘rganish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini oshirish davlat siyosatining ta’lim sohasidagi ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Bolalarimiz maktabdan ona tili va chet tillarini puxta o‘zlashtirib, kompyuterda ishlashni o‘rganib chiqishi zarur.

Oliy ta’lim muassasalari pedagoglarining zimmasiga – xorijiy til o‘qituvchilari chet tillarni chuqur o‘rganish va o‘rgatish vazifalarini, xorijdagi rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or innovatsion pedagogik tajribalaridan foydalanish va shu asosida xorijiy tilni o‘qitishning zamonaviy samarali metodikasini yaratish vazifasi qo‘yildi. Xorijiy tillarni o‘qitish va o‘quvchi yoshlar bilimini baholash borasida zamonaviy kommunikativ kompetensiyaviy metodikalarga asoslangan innovatsion ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va ta’lim tizimining barcha bosqichlariga joriy etish vazifasi ham kun tartibidagi muhim vazifalarga aylanmoqda.

XULOSA

Xorijiy til asosiy mutaxassislik hisoblangan pedagogika OTM yo‘nalishlari uchun kirish imtihonlarida an’anaviy test o‘rniga “Chet tilini bilish darajasi milliy kvalifikatsiya” (Chet tilini bilish 4 ta ko‘nikmalari bo‘yicha) testi orqali talabalikka qabul qilish lozim. An’anaviy testga tayyorlanish orqali esa abituriyentlar faqat chet tili grammatikasini o‘rganishadi va natijada ularning kommunikativ kompetensiyasi ya’ni gapirish, tinglab tushunish, yozish, o‘qish ko‘nikmalari shakllanmaydi va CEFR talablariga javob bera olmaydi. Xorijiy tillar ta’lim yo‘nalishi bitiruvchi kurs talabalarini ta’lim muassasalarida CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi bo‘yicha ishlashiga sharoit yaratish ham samara beradi, deb o‘ylayman. Buning uchun bitiruvchi kurs talabalarini o‘quv jarayonini tashkil qilishda dual ta’lim prinsiplarini joriy etish tavsiya etiladi, ya’ni tabiiy fanlar yoki aniq fanlar yo‘nalishini bitirayotgan talabaga xorijiy tillar qo‘srimcha kvalifikatsiya berilishi va natijada biologiya fanini ingliz tilida o‘qitadigan mutaxassis yetishib chiqishiga imkoniyat yaratiladi. Har bir ta’limga daxldor inson Prezidentimizning ushbu “Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi” kabi fikrini hamma vaqt yodimizda tutishimiz ham qarz, ham farz demakdir. Oliy o‘quv yurtlari va umumta’lim maktablari o‘rtasidagi aloqani keskin darajada kuchaytirish lozim.

Bunda, Xalqaro dasturlar (PISA, PIRLS, TIMSS, EGMA, EGRA) talablari to‘g‘risida hamda o‘quvchilarni mazkur tadqiqotlarda qatnashishga tayyorlash to‘g‘risida oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari va umumta’lim maktablari o‘quvchilariga keng tushuntirish ishlarini olib borishlari talab etiladi. Bu borada seminarlar, seminar-treninglar, suhbatlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ilmiy-metodik ishlarga maktab o‘qituvchilarini jalb qilish, xalqaro baholash dasturlariga tayyorlovchi stesting.uz platformasi orqali umumta’lim maktablarining o‘quvchilarini PISA, PIRLS, TIMSS onlayn tayyorgarlik sinovlarida ishtirok etishini ta’minlash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Chet tillar oliy o ‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik T: 2020
2. Axmedova Odinaxon Inomovna.- Ingliz tilini o’qitish va o’rganishda zamonaviy texnologiyalaran foyalanish.-Oriental renaissance innovative, educational, natural and social sciences-2022 22 2. O’. Hoshmov, I. Yoqubov.-“ Ingliz tili o’qitish metodikasi”(o’quv qo’llanma) Toshkent: ” Sharq” nashriyoti
3. Zayniddin Sanaqulov, Baxromjon Joraboyev. Chet til o’qitish metodikasida zamonaviy metodlar, 2021
5. Muminova Feruza Muratjanovna.-Ingliz tilini o’qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish
6. Absamadova Munira Isroilovna.-Ingliz tilini o’qitish va o’rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.-Ученный XXI века-2016